

# OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA

## KIRUVCHILAR UCHUN

### "XORAZM ILM ZIYO" NTM

+998995607273 raqamiga SMS yuboring.

3082VDVI\*Familiya Ism (Viloyat)  
\*JAVOBLAR

Namuna: 3082VDVI\*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)\*BAADACCCAACA...

#### Izoh:

- 1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida **O', G'** harflari qatnashsa ularni o'rniga **U** va **G** harflarini ishlating.
- 2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing.
- 3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. **2.07.2019-3.07.2019**
- 4) Repetitsion testning sms javoblari soat **21:00** gacha qabul qilinadi.

Natijalar: Har kuni **@repetitsiontestuz** kanalida soat **22:00** e'lon qilinadi

## SAVOLLAR KITOBI

999987

---

Matematika (3.1)

Fizika (2.1)

Ona tili va adabiyoti (1.1)

---

BLOKLAR:

Test topshiruvchi:

---

F.I.O.

---

IMZO

### DIQQAT!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'lqilagini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idiagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

**MATEMATIKA**

1. Besh xonali  $\overline{x526y}$  sonini 55 ga bo'lganda natural son hosil bo'ladi.  $x$  ning barcha qiymatlari yig'indisini toping.  
A) 13 B) 14 C) 9 D) 11

2. Hisoblang  $\left(\frac{\sqrt{6}+\sqrt{5}}{\sqrt{2}+1} \cdot \frac{\sqrt{6}-\sqrt{5}}{\sqrt{2}-1}\right) \cdot \left(\frac{1}{\sqrt{3}} - \frac{\sqrt{3}}{9} + \frac{1}{\sqrt{27}}\right)$   
A)  $\sqrt{3}$  B)  $\frac{\sqrt{3}}{3}$  C)  $3\sqrt{3}$  D) 1

3.  $3^{18} = x+1$  tenglik o'rinni bo'lsa,  $x$  quyidagilardan qaysi biriga qoldiqsiz bo'linadi?  
A) 13; 14 B) 25; 26 C) 14; 15 D) 25; 28

4.  $|4\sqrt{3}-7| - |5\sqrt{2}-7|$  nimaga teng?  
A)  $14-4\sqrt{3}-5\sqrt{2}$  B)  $4\sqrt{3}-5\sqrt{2}$   
C)  $5\sqrt{2}-4\sqrt{3}$  D)  $4\sqrt{3}+5\sqrt{2}-14$

5. Uchta sonning uchinchisi ikkinchisidan nechta ortiq bo'lsa, ikkinchisi birinchisidan shuncha ortiq. Bu sonlardan ikkita kichigining ko'paytmasi 165, ikkita kattasining ko'paytmasi 285 ekanligi ma'lum. Shu uchta sondan uchinchisini toping.  
A) 17 B) 15 C) 13 D) 19

6.  $\frac{2}{x^2-4} + \frac{x-4}{x^2+2x} = \frac{1}{x^2-2x}$  tenglamaning barcha ildizlari yig'indisini (agar u bitta bo'lsa, shu ildizini o'zini) toping.  
A) -5 B) 5 C) 3 D) 4

7. Agar  $x < -1$ ,  $y > 1$  bo'lsa, quyidagi javoblardan qaysi biri har doim o'rinni.


A)  $y^2 > x^6$  B)  $x^4 > y$   
C)  $x^2 < y^2$  D)  $y^3 > x^3$

8. 1,2,2,3,3,3,4,4,4,4,5,5,5,5,6... kamaymaydigan sonlar ketma-ketligida har bir son o'zining qiymati necha bo'lsa, shuncha marta takrorlanadi. Bu ketma-ketlikda 2018-o'rinda turgan sonni toping.  
A) 63 B) 64 C) 65 D) 62

9. Ifodani soddalashtiring:  $7 \sin^2 x - 1 + 7 \cos^2 x$   
A) 7 B) 6 C) 0 D) 5

10.  $\sin(x + 2018\pi) = 0$  tenglamaning  $[0; 2\pi]$  oraliqdagi ildizlari yig'indisini toping.  
A)  $2,5\pi$  B)  $3,5\pi$  C)  $3\pi$  D)  $2\pi$

11. Chizmada qaysi funksiya grafigi taqriban tasvirlangan?



A)  $y = \sin\left(x + \frac{\pi}{6}\right)$  B)  $y = \sin\left(x + \frac{\pi}{3}\right)$   
C)  $y = \sin\left(x - \frac{\pi}{6}\right)$  D)  $y = \sin x$

12.  $y = 50x + 79$  to'g'ri chiziqqa parallel bo'lgan,  $y = kx - 4,7$  to'g'ri chiziqqa tegishli nuqtani toping.

A) (1; 3) B) (0,125; 2,2)  
C) (0,3; 0,1) D) (0,1; 0,3)

13. Agar  $4^a = 27$ ,  $3^b = 64$  bo'lsa  $a \cdot b$  ning qiymatini toping.

A) 13 B) 9 C) 10 D) 11

14. Hisoblang:  $2^{\frac{1}{2\log_5 2}} \cdot 5^{\log_2 2} - \sqrt{5} \cdot 2^{\log_5 2} - \left(\frac{1}{3}\right)^{\log_3 25}$

A) 0,4 B) 0,04 C) -0,4 D) -0,04

15. Tenglamani yeching:  $\lg(x(x+9)) + \lg \frac{x+9}{x} = 0$

A) 10 B) -10 C) 18 D) 4,8

16. Agar  $f(x) = 6 + 5tg^2 2x$  bo'lsa,  $f'(\pi)$  ni toping.

A) 0 B) 1 C) 5 D) 2

17.  $f(x) = A \cdot 2^x + B$ , funksiya uchun  $f'(1) = (\ln 2)^2$  va

$$\int_0^2 f(x) dx = \frac{1}{2} \text{ tengliklar o'rinni bo'lsa, } B \text{ ni toping.}$$

A)  $-\frac{1}{2}$  B) -1 C)  $\ln 2$  D) -2

18. Teng yonli  $ABC$  uchburchakda  $AC = d$ ;  $BA = BC = a$ ;  $AN$  va  $CM$  bissektrisalar.  $MN$  kesma uzunligini toping.

A)  $\frac{a}{a+d}$  B)  $\frac{a+d}{2}$

C)  $ad + a + d$  D)  $\frac{ad}{a+d}$

19.  $ABCD$  parallelogrammda  $BH$  perpendikulyar o'tkazilgan bo'lib,  $H$  nuqta  $AD$  kesmada yotadi. Agar  $AH = 6$ ,  $HD = 10$ ,  $\angle ABH = 30^\circ$  ekanligi ma'lum bo'lsa, parallelogramning yuzini toping.

A)  $96\sqrt{2}$  B)  $96\sqrt{3}$  C)  $48\sqrt{3}$  D)  $96\sqrt{6}$

20. Radiuslari 7 va 14 sm bo'lgan kesishuvchi ikkita aylananing kesishish nuqtalaridagi urinmalar o'zaro perpendikulyar.  $O_1ABO_2$  shaklning yuzini toping.  $AB$  - aylanalarga umumiy urinma,  $O_1$  va  $O_2$  esa ularning markazlari.

A)  $110 \text{ sm}^2$  B)  $238 \text{ sm}^2$

C)  $109 \text{ sm}^2$  D)  $147 \text{ sm}^2$

21. Tenglamasi  $3x - 7y + 21 = 0$  bo'lgan to'g'ri chiziqning koordinata o'qlari orasida joylashgan kesmasining o'rtasidan perpendikulyar bo'lib o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini tuzing.

A)  $x - 3y + 8 = 0$  B)  $7x + 3y - 12 = 0$

C)  $x + 3y - 1 = 0$  D)  $7x + 3y + 20 = 0$

22. Parallelogramning bir tomoni orqali unga qarama-qarshi tomonidan  $a$  masofada yotuvchi tekislik otkazilgan. Parallelogramning diagonallari kesishish nuqtasidan berilgan tekislikgacha bo'lgan masofani toping.

A)  $\frac{a}{\sqrt{3}}$  B)  $\frac{a}{2}$  C)  $\frac{a}{\sqrt{2}}$  D)  $\frac{a}{3}$

23.  $ABCDA_1B_1C_1D_1$  to'g'ri burchakli parallelepipedda  $\overrightarrow{AD} = \vec{a}$ ,  $\overrightarrow{AB} = \vec{b}$  va  $\overrightarrow{AA_1} = \vec{c}$  bo'lsa,  $\overrightarrow{DB_1}$  vektorni  $\vec{a}$ ,  $\vec{b}$  va  $\vec{c}$  vektorlar orqali ifodalang.

A)  $\vec{b} + \vec{a} - \vec{c}$  B)  $\vec{b} + \vec{a} + \vec{c}$

C)  $\vec{b} - \vec{a} - \vec{c}$  D)  $\vec{b} - \vec{a} + \vec{c}$

24. Do'konda 5 xil konvert va 4 xil marka sotilmoqda. Konvert bilan markani nechta usulda sotib olish mumkin?

A) 16 B) 20 C) 15 D) 18

25. To'g'ri berilgan integrallash formulalarini tanlang:

1)  $\int \frac{1}{g(x)} \cdot g'(x) dx = \ln|g(x)| + C$

2)  $\int a^{g(x)} \cdot g'(x) dx = \frac{a^{g(x)}}{a \ln|a|} + C$

3)  $\int e^{g(x)} \cdot g'(x) dx = e^{g(x)} + C$

A) 2; 3    B) 1; 2    C) 1; 2; 3    D) 1; 3

26. Quyidagilardan qaysilari axborot ko'rinishi hisoblanadi?

- A) uzlukli, uzlucksiz    B) tushunarli, ishonchli  
C) Karrali, dolzarb    D) grafikli, tovushli

27. Faqat rost mulohazalarni aniqlang va ularga tenglashtirilgan mulohazlar yig'indisini rim sanoq sistemasida hisoblang.

*XClX* - "Informatikani odatda, Hardware va Software kabi ikki qismning birligi sifatida qaraladi".

*XIX* - "XX asrning 50-yillarida informatika faniga asos solingan".

*IV* - "Informatika, odatda, Hardware sifatida qaraladi".

- A) CXIX    B) CXVIII    C) CXVII    D) XXIII

28. 524, 353, 307 butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig'indisini aniqlang.

- A) 1184    B) 1520    C) 1406    D) 1285

29. MS Excel dasturida fo'rmlulaning natijasini aniqlang: =ABS(-12)+15\*3HAK(-12)

- A) -27    B) 27    C) 3    D) -3

30. Qanday teg yordamida HTML hujjatining tanasi aks ettiriladi

- A) <HTML> ...</HTML>    B) <TITLE>...</TITLE>  
C) <HEAD>...</HEAD>    D) <BODY>...</BODY>

## FIZIKA

31. Avtomobil botiq ko'priklarida 10 m/s tezlik bilan harakat qilmoqda. Uning ko'priklar pastki nuqtasidagi og'irligini (kN) va unga ta'sir qiluvchi barcha kuchlarning teng ta'sir etuvchisini toping (kN). Ko'priknning egrilik radiusi 90 m, avtomobil massasi 9 t.

- A) 100; 10.    B) 10; 100.  
C) 100; 0.    D) 5; 10.


32. Qayiq massasi 100 kg. Suvning qayiq harakatiga qarshilik kuchi tezlikka proporsional bo'lib, proporsionallik koefitsiyenti 20 kg/s ga teng. Qanday masofada (m) qayiq tezligi 4 m/s dan 1 m/s gacha kamayadi?

- A) 20.    B) 10.    C) 15.    D) 25.

33. Gorizontal tekislikda yotgan 2 kg va 1 kg massali ikki jism ip bilan bog'langan. Birinchi jism 8 N gorizontal kuch bilan tortilsa, ipning taranglik kuchi (N) qanday bo'ladi? Ishqalanish koefitsiyenti 0,3.

- A) 2.    B) 4.    C) 5.    D) 3.

34. Rasmlarda 2q nuqtaviy zaryad atrofida hosil bo'lgan ekvipotensial sathlar keltirilgan. Qaysi rasmida yonma-yon sathlar orasidagi potensiallar farqi bir xil?



A) 4.    B) 2.    C) 1.    D) 3.

35. Pozitron uzoqdan  $\theta$  ( $\theta \ll c$ ) tezlik bilan dastlab tinch turgan proton tomon harakatlanmoqda. Proton bilan ta'sirlashgandan so'ng pozitronning natijaviy tezligi qanday bo'lishini baholang. Protonning massasi pozitronnikidan 1840 marta ortiq.

- A)  $-\theta$     B)  $\theta/2$     C)  $-2\theta$ .    D)  $2\theta$

36. Qanday balandlikdan (m) 10 m/s boshlang'ich tezlik bilan tik pastga otilgan jism oxirgi sekundda 35 m masofani o'tadi?

- A) 35.    B) 25.    C) 75.    D) 50.

37. Zarraning harakati jadval ko'rinishida berilgan. Tezlik va tezlanish ta'rifi ko'ra zarraning o'rtacha tezlanishini toping ( $\text{cm/s}^2$ ).

t (s)	10	11	12
x (m)	1,6	1	-1

- A) 140.    B) 280.    C) -140.    D) -280.

38. XOY tekislikda harakatlanayotgan moddiy nuqtaning harakat qonuni  $x=2+t$  va  $y=1+2t$  ko'rinishiga ega. Moddiy nuqtaning trayektoriya tenglamasini tuzing.

- A)  $y=x-3$ .    B)  $y=x+1$ .  
C)  $y=2x-3$ .    D)  $y=2x+3$ .

39. Birlik vaqt davomida jismning birlik yuzasiga birlik kenglikdagi chastotalar intervalida tushayotgan elektromagnit nurlanish energiyasining qancha qismi jism tomonidan yutilishini xarakterlaydigan kattalik . . . . qobiliyati deb ataladi.

- A) nur chiqarish.  
B) elektron chiqarish qobiliyati.  
C) nur yutish.  
D) elektron qabul qilish.


40. Magnit maydon kuchlanganligi va induksiyasi orasidagi bog'lanishni toping.

- A)  $B = x/\mu_0 H$ .    B)  $B = xH$ .  
C)  $B = (x+1)/\mu_0 H$ .    D)  $B = (x-1)/\mu_0 H$ .

41. To'rt mol geliy (He) adiabatik jarayonda 16,6 J ish bajargan. Bunda gazning temperaturasi qanchaga (K) o'zgargan?

- A) -0,54.    B) -0,33.    C) 0,91.    D) 0,67.

42. Massasi 1 kg bo'lgan suyuqlik haroratning unga berilgan issiqlik miqdoriga bog'liq o'zgarish grafigidan foydalanib, suyuqlikning solishtirma issiqlik sig'imini ( $\text{kJ/kg K}$ ) va solishtirma bug'lanish issiqligini ( $\text{MJ/kg}$ ) aniqlang?



- A) 15; 6.    B) 15; 3.    C) 20; 4.    D) 20; 3.

43. Normal sharoitda gaz molekulalarining ilgarilanma harakat erkinlik darajasi  $i_1$  ga va aylanma harakat erkinlik darajasi  $i_a$  ga ega bo'lishi mumkin. Birinchi gaz uchun  $i_1 - i_a = 1$ . Huddi shunday miqdordagi ikkinchi gaz uchun  $i_1 + i_a = 5$  ga teng. Bir xil haroratda bu gazlarning ichki energiyalari nisbati  $U_1/U_2$  nimaga teng?

- A) 1,2.    B) 1.    C) 0.    D) 2.


44. Temirning erish harorati  $1538^{\circ}\text{C}$ , kumushniki esa  $962^{\circ}\text{C}$ . Temir-kumush qotishmasining erish harorati qaysi haroratlar ( $^{\circ}\text{C}$ ) oralig'iда yotadi?

- A) (962; 1250).    B) (0; 962).  
C) (1250; 1538).    D) (1538; 2500).

45. Ikki mol kislrorod ( $\text{O}_2$ ) gazi isitkichdan  $Q_1$  issiqlik olib, izobarik kengaymoqda, so'ngra sovutkichga  $Q_2$  issiqlik

berib, izoxorik ravishda dastlabki temperaturagacha sovutilmogda.  $Q_1 / Q_2$  nisbat topilsin.  
A) 1. B) 0,66. C) 1,67. D) 1,4.

46. Rasmida ko'rsatilgan, orasidagi masofa  $d = 5\mu\text{m}$  bo'lgan tirkishlardan o'tib, A nuqtaga yetib kelgan nurlarning fazalar farqi (rad) qanday?  $\sin\alpha \approx \alpha \approx \pi / 20$ . To'lqin uzunligi  $\lambda = 2\mu\text{m}$ .  $\pi^2 = 10$ .



- A) 2,50. B) 1,25. C) 0,40. D)  $\pi / 20$ .


47. Qavariq linzaning optik kuchi 5 D, buyum undan 16 cm masofada turibdi. Linza hosil qilgan tasvirdan buyumgacha bo'lgan masofani (cm) toping.

- A) 109. B) 64. C) 75. D) 81.

48. O'tkazgichning solishtirma qarshiligi  $\rho$ , undagi tok zichligi j. Elektr maydon kuchlanganligi E nimaga teng?

- A)  $1/j\rho$ . B) 0. C)  $\rho/j$ . D)  $\rho j$ .

49. Quyida keltirilgan sxemadan foydalanib K va L nuqtalar orasida umumiy qarshilikni aniqlang.



- A)  $3R$ . B)  $R$ . C)  $9R$ . D)  $6R$ .

50. 200 g massali temir sharcha 2 m balandlikdan erkin tushdi. Uning pol bilan birinchi va ikkinchi urilishi orasidagi vaqt intervali 1,2 sekund bo'ldi. Birinchi urilish paytida qancha energiya ( $\text{mJ}$ ) issiqlikka aylanadi? Havoning qarshilik kuchini hisobga olmang.  $g=10 \text{ N/kg}$ .

- A) 400. B) 360. C) 240. D) 320.

51.  $m_1$  massali va  $p_1$  impulsli zarra  $m_2$  massali tinch turgan zarra bilan markaziy elastik to'qnashmoqda. Massalar qanday munosabatda bo'lganida dastlabki mexanik energiya to'liq ikkinchi zarraga o'tadi?

- A)  $m_1 = m_2$ . B)  $m_1 >> m_2$ .  
C)  $m_1 \ll m_2$ . D)  $m_1 = 2m_2$ .

52. Kapitan kema motoridagi nosozlik tufayli, uning quvvati 36 % ga kamayganligini aniqladi. Agar harakatga qarshilik kuchi tezlikka proporsional bo'lib, proporsionallik koefitsiyenti k ga teng bo'lsa, motorning tezligi necha % ga kamaygan?

- A) 40. B) 20. C) 30. D) 10.

53.  $v_1$  tezlikda harakatlantirilgan sharcha huddi shu yo'nalishda  $v_2$  tezlikda harakatlantirilgan massiv devorga elastic urilib qaytdi. Sharchaning to'qnashuvdan keyingi tezligini toping.

- A)  $v_1 - 2v_2$ . B)  $v_1 - v_2$ .  
C)  $v_1 + 2v_2$ . D)  $v_1 + v_2$ .

54. Amplitudasi 2,2 cm bo'lgan prujinali mayatnikda yuk muvozanat vaziyatidan boshlab siljishi uchinchi marta 1,2 cm ga teng bo'lgan vaqt ichida qanday yo'lni (cm) bosib o'tadi?

- A) 8,8. B) 5,6. C) 10. D) 7,6.

55. Elektromagnit to'lqin magnit kirituvchanligi  $\mu=11$  bo'lgan muhitdan havoga o'tdi. Bunda uning tebranish vaqtiga teng vaqt davomida ko'chish masofasi qanday o'zgaradi?

- A) ortadi. B) o'zgarmaydi.

- C) avval ortadi, so'ngra kamayadi. D) kamayadi.

56. Qizdirgich lampining quvvati 100 W, toza metall qizdirgich elementining nominal temperaturasi 3000 K. Lampa kuchlanish tarmog'iga ( $U=220 \text{ V}$ ) ulangach, temperatura 2700 K ga yetgan paytda lampadan o'tayotgan tok kuchining qiymati (A) topilsin. Qarshilik qiymati absolut temperaturaga to'g'ri proporsional va  $R(0) = 0$ .

- A) 0,38. B) 0,50. C) 0,42. D) 0,56.

57. Qaysi zarralar stabil zarralar hisoblanadi?

- A) proton, myuon, neytrino, foton.

- B) proton, elektron, neytrino, foton.

- C) proton, elektron, neytron, foton.

- D) proton, elektron, neytrino, antiproton.

58. Spini  $s=3/2$  bo'lgan zarralar?

- A)  $\Omega$ -giperon,  $\Delta$ -rezonans.

- B) elektron, proton, neytron, neytrino, myuon, kvark.

- C) foton, glyuon.

- D)  $\pi$ -mezon,  $K$ -mezon,  $\eta$ -mezon.

59. Proton antiprotondan nimasi bilan farq qiladi?

- A) massasi. B) magnit momenti.

- C) zaryadi. D) spini.

60. Atomda elektronning orbitadagi impuls momentini berilgan yo'nalishga proyeksiyasini aniqlovchi sonlar?

- A) bosh kvant sonlar.

- B) spin kvant sonlar.

- C) magnit kvant sonlar.

- D) orbital kvant sonlar.

## ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Otning ma'noviy guruhi so'roqlari bilan muvofiq kelgan javobni belgilang.

- 1) Shaxs otlari. 2) Narsa otlari. 3) O'rinn joy otlari. a) kim ?

- b) nima? d) qayer?

- A) 1-a; b; 2-b, d; 3-d B) 1-a; 2-b; 3-b, d

- C) 1-a; 2-b; 3-d D) 1-a,b; 2-b; 3-d

62. Gaplarning qaysi birida ko'chma ma'noli so'z berilgan?

- A) Oltin o'tda bilinear, odam mehnatda

- B) Rustam dehqonchilikning tillini yaxshigina o'rgangan

- C) Tabriklardan keyin majlisning rasmiy qismi tugadi

- D) Tikansiz gul bo'limas, mashaqatsiz hunar

63. Bu bog'da qushlarning chug'ur-chug'uri eshitilmasdi. Ushbu gapda nechta so'z hokim bo'lak vazifasini bajara olmaydi?

- A) 4 ta B) 3 ta C) 1 ta D) 2 ta

64. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin.

Ushbu gap qaysi uslub namunasi?

- A) rasmiy uslub B) ommabop uslub

- C) ilmiy uslub D) badiiy uslub

65. O'tdi yoshlik zavq bilan, gohi to'polon bilan,

Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,

Ayri ham tushdim ba'zan qalb bilan, imon bilan,

Lekin seni yo'qotdim, birinchi muhabbatim

Ushbu she'riy parchadagi yasama so'z(lar) quyidagi qaysi

bo'lak(lar) ga nisbatan hokim bo'lak hisoblanadi?

- 1) ega; 2) to'ldiruvchi; 3) hoi; 4) aniqlovchi.

- A) 2 B) 3 C) 1, 2 D) 3, 4

66. Hokkey, muxojir, nadomat, tutiriqsiz, vakuum hashorat, fuqaro Mazkur so'zlardan nechtasi to'g'ri yozilgan?

- A) 2 tasi B) 3 tasi C) 4 tasi D) 1 tasi

67. «Qadimgi Gretsiya Ovro'pada sivilizatsiya o'chog'i sifatida qanday o'r'in tutgan bolsa, O'zbekiston va o'zbek xalqi Osiyoda, butun turkiy o'lkkalar va barcha turkiy xalqlar

tarixida shunday o'rin egallaydi». Ushbu fikrlar kimga tegishli?

- A) Abdurauf Fitrat    B) Chingiz Aytmatov  
C) Islom Karimov    D) Cho'lpon

68. Ushbu gapning turini aniqlang.

- Inson nimagaki erisha olmasa, o'sha aziz tuyiladi.  
A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap  
B) ega ergash gapli qo'shma gap  
C) hol ergash gapli qo'shma gap  
D) sodda gap

69. Berilgan gap haqida to'g'ri ma'lumot keltirilgan javobni toping. Bu olim riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan.

- A) 4 ta aniqlovchili, 1 ta to'ldiruvchili, 1 ta holli birikma mavjud  
B) 5 ta aniqlovchili, 1 ta to'ldiruvchili birikma mavjud  
C) 3 ta aniqlovchili, 1 ta to'ldiruvchili, 1 ta holli birikma mavjud  
D) 4 ta aniqlovchili, 1 ta to'ldiruvchili birikma mavjud

70. "Tulki qiziga to'y berdi" iborasi haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

- A) Bu ibora emas maqol.  
B) Uy egasi yo'q paytida uyga mehmon yo'qlab kelganda ishlataladi.  
C) Bahor kunida birdan yomg'ir yog'ganda ishlataladi.  
D) laylak qor yog'ib, yerda esa qordan nishon bo'lмаганida ishlataladi.

71. Birni bersang otangga, mingni olasan bolangdan.Ushbu gap...

- A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap  
B) bog'lovhisiz qo'shma gap  
C) ega ergash gapli qo'shma gap  
D) hol ergash gapli qo'shma gap

72. Hozirgi kunda O'rxun-Enasoy yodgorliklarining nechta si fanga ma'lum?

- A) 500 ga yaqini    B) 800 ga yaqini  
C) 600 ga yaqini    D) 700 ga yaqini

73. Hammamizning onamizdir shu Vatan,

Yov qoldirgan siynasida ming tikan,  
Tirikmiz-ku, uni tozalash bizdan, Yur, o'g'lonim, yurtni ko'tarish uchun.  
Ushbu she'rda tarkibida faqat jarangli til undosh(lar)i va unli tovush(lar) qatnashgan so'zlar qanday sintaktik vazifa bajargan?

- A) to'ldiruvchi, kesim    B) kesim  
C) ega, kesim    D) ega, kesim, undalma

74. Darak gap shaklidagi ko'chirma gap kesimi o'zlashtirma gapga aylantirilganda qanday gap bo'lagi bo'lib keladi?

- A) tushum kelishigidagi harakat nomi yoki sifatdosh bilan ifodalangan to'ldiruvchi  
B) kesim  
C) qaratuvchi aniqlovchi  
D) ega

75. Quyidagi qaysi so'zlar o'z paronimlari bilan bir xil so'z turkumiga mansub bo'ladi?

- 1) yod, 2) ham, 3) burch, 4) bob, 5) afzal, 6) eg  
A) 2, 3, 6    B) 1, 2, 4, 5, 6  
C) 3, 5, 6    D) 3, 6

76. Qaysi javobda jarangli jufti bor bo'lgan til oldi sirg'aluvchi undoshi berilgan?

- A) s    B) g'    C) f    D) l

77. Cho'loqqa achinish bilan qaramoq birikmasidagi ma'no ko'chish usulini aniqlang

- A) vazifadosh    B) sinekdoxa  
C) metafora    D) metonimiya

78. Quyida berilgan gapdagagi sifat turkumiga oid yasama so'zlar

sonini aniqlang.

Auditoriyaga tik qomatli, xushbichim, o'ziga yarashgan kastum-shim, ustidan yupqa qavilgan beqasam to'n kiygan, oyog'ida zamonaviy tuqli, bo'ynida chiroli galstugi, ko'zida tilla gardishli ko'zoynagi bor, kalta mo'ylov qo'ygan, moshrang do'ppili kishi viqor bilan kirib keldi.

- A) 9ta    B) 6ta    C) 7ta    D) 8ta

79. Qaysi gapda so'z birikmalarining birikish usuliga ko'ra barcha turi ishtirot etgan?

- A) Shavkatlarning kattagina uzumzor bog'i bor.  
B) Polvonning qo'li kuchliroq o'ziga tortadi.  
C) Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni samimiyatga chorlaydi.  
D) Men ular bilan to'rt marta gaplashdim.

80. Berilgan qaysi gapda noto'g'ri yozilgan so'z qo'llangan?

- A) Sirdaryo qирг'ог'ida Mingbuloq degan so'lim bir qishloq bor  
B) Terim sur'ati keskin pasayadi.  
C) Ob-havo noqulayligi shunday yol tutishni taqozo qilardi  
D) Ayovsiz jangda dushman ko'p talofat ko'rdi

81. Sohilda o'tkir hidli qoramtilar yalpizlar, sershox jambillar o'sib yotibdi. Berilgan gapdagi qo'shimchalarining turi va sonini aniqlang.

- A) 3 ta so'z yasovchi, 5 ta lug'aviy shakl yasovchi, 2 ta munosabat shakli  
B) 1 ta so'z yasovchi, 4 ta lug'aviy shakl yasovchi, 3 ta munosabat shakli  
C) 4 ta so'z yasovchi, 4 ta lug'aviy shakl yasovchi, 2 ta munosabat shakli  
D) 2 ta so'z yasovchi, 5 ta lug'aviy shakl yasovchi, 3 ta munosabat shakli

82. Mirmuhsinning qaysi qissalari o'tmisht tarixidan aks ettirishga qaratilgan?

- 1."Oq marmar", 2."Cho'ri",  
3."Chodrali ayol" 4."Tungi chaqmoqlar"  
A) 1,2    B) 2    C) 1,2,4    D) 1,2,3

83. Kul Tigin bitigida yozuvlar qanday tarzda bitilgan?

- A) chapdan o'ngga va yuqoridan pastga qarab  
B) o'ngdan chapga va yuqoridan pastga qarab  
C) chapdan o'ngga va pastdan yuqoriga qarab  
D) o'ngdan chapga va pastdan yuqoriga qarab

84. "Uloqda" hikoyasida biya minib o'rtoqlariga kulgi bo'lgan bolaning ismi?

- A) Mahkamboy    B) Salim  
C) Shokir mishiqi    D) Turg'un

85. "Gezi-gezi bilan Jizzaxga borib, ularga qo'nardim, bir hafta, ikki hafta turib, qadrdonlarimga qo'shiq aytib kelardim. Ular bilan dardlashib, o'zimning ham ko'nglimni yozib qaytardim", - deb xalq baxshisi Fozil shoir kimning oilasi haqida gapirib o'tgan?

- A) H. Olimjon    B) O'. Hoshimov  
C) A. Oripov    D) E. Vohidov

86. H.Olimjonning sahna asarlarini toping. 1."Ikki qizning hikoyasi", 2."Muqanna", 3. "Zaynab va Omon", 4."Oygul bilan Baxtiyor", 5."Jinoyat", 6."Semurg" yoki Parizod va Bunyod"

- A) 1,3    B) 2,4    C) 1,6    D) 2,5

87. "Boburnoma"da "Samarcandning g'arb tarafi yigirma besh yig'och yo'ldadur", - deb qayer ta'riflanadi?

- A) Qo'qon    B) Qarshi    C) Andijon    D) Buxoro

88. "Qadrdon so'qmoqlar"(I.Yusupov) she`rida lirik qahramon gul terib, kapalak quvgan sho'x vaqtini nimaga o'xshatadi?

- A) o'yab yurgan sho'x bo'taloqqa.  
B) bedazorda yurgan toyga.  
C) qir-adirda yurgan qo'zichoqqa.  
D) tomdan-tomga sakrab yurqan uloqqa.

89. Qaysi podsho Rabg'uziyidan "o'qimoqg'a keraklik, o'rganmakka yarog'liq" payg'ambarlar qissalaridan iborat asar yozib berishini so'raydi?

- A) Nosiruddin To'qbug'a    B) Abulg'ozzi Bahodirxon  
C) Tabg'ach Bug'raxon    D) Muhammad Xo'jabek

90. "Kuntug'mish" dostonining qaysi baxshilardan yozib olingan variantlari bor?

1.Ergash Jumanbulbul o'g'li, 2.Bekmurod Jo'raboy o'g'li, 3. Berdi baxshi, 4.Nurmon Abduvoy o'g'li, 5.Egamberdi Ollamurod

- A) 1,4,5    B) 1,3,4,5  
C) 2,3,4,5    D) 1,2,4,5